

**QO'QON XONLIGIDA HARBIY KUCHLAR VA QO'SHINNING TARKIBIY  
TUZILISHI**

**Sultonov Abdullaziz Jamshid o'g'li**

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi

Tel:+998915852470

e-mail: [abdulazizsultonov0103@gmail.com](mailto:abdulazizsultonov0103@gmail.com)

**Usmonova Maxfirat Murodullo qizi**

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi

Tel:+998993119815

e-mail: [mardonovshaxzodbek19@gmail.com](mailto:mardonovshaxzodbek19@gmail.com)

**Annotatsiya:** Har bir davlatning muhim belgilardan biri bu uning o'z armiyasining mavjudligidadir. Armiya kuchi davlat kuchiga parallel bo'lib u bilan birga rivojlanadi. Bu har qanday davlatda legitimlikni saqlashda muhim omil hisoblanadi.

O'rta asrlarda aniqroq qilib aytganda jahon tarixida "yangi davr" jarayoni ketayotganda Markaziy Osiyoda "so'ngi o'rta asrlar" vaqtida hukmronlik qilgan minglar sulolasi ham har qanday davlat singari o'z qurolli kuchlariga ega va ularni saqlash uchun katta sarf xarajatli buyjetga ega davlat edi. Qo'qon xonligi harbiy san'ati tarixi o'z atrofidagi qo'shni davlatlar singari tartibda bir xil ketgan, hatto ba'zi vaqtlar ulardan o'zib ham ketgan. Ammo davr taqozosi va boshqa ko'plab sabablar tufayli ular zamonaviy armiya qura olishmagan. Ammo ular mavjud sharoitlardan foydalangan holda garchi eskiroq bulsa ham boy tajribalardan unumli foydalanishgan. Buni Rossiya bosqini davrida ham ko'rish mumkin.

Ushbu maqolada Qo'qon xonligidagi harbiy tizim haqida boradi.

**Kalit so'zlar:** qo'qon, sipoh, otliq, xon, navkar, muntazom, nomuntazam, qoracherik, otliq, askar, qo'shin, tug', bayroq, qo'rchi.

**Kirish**

XIX asrdagi ko'plab xorijiy sayyoohlar va mualliflari o'z asarlarida Qo'qon xonligi muntazam qo'shinga ega emas, xonlikda nomuntazam qo'shin mavjud bo'lib, u faqat yurishlar oldidan to'plangan, degan ma'lumotlarni keltirib o'tadilar. Qo'qon xonligi harbiy tizimida muntazam qo'shindan soni jihatidan ortiqroq bo'lgan harbiy harakatlar vaqtida to'plangan yordamchi bo'linmalar «qoracherik» va «qoraqozon»ning o'rni katta edi. Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra, Qo'qon xonligida Norbo'tabiy davrida mavjud bo'lgan qal'a va chegaradagi bo'linmalar muntazam qo'shining asosi bo'lib xizmat

qilgan. Tom ma'nodagi muntazam qo'shinga esa hukmronlik yillarida «Sohibqiron» laqqabini olgan Qo'qon xoni Olimxon asos solgan. U mavjud qo'shindan saralab olingan askarlardan iborat maxsus bo'linma tashkil qilgan va uni galabahodir yoki galabotirlar deb nomlangan. Tashkil qilingan galabotirlar gvardiyasiga tayangan holda Olimxon, g'alayon ko'targan viloyatlar qarshiligini sindirardi. Shundan so'ng, u o'zining jasurligi bilan ma'qul bo'lgan ko'histonliklardan iborat ikkita bo'linma tashkil qilgan. Ulardan birinchisiga 3700 qorateginliklar, ikkinchi bo'linmaga 2200 kishidan iborat darvozlik, badaxshonlik, sho'g'nonlik, ro'shonlik, eronliklar olingan. «Tarixi Shoxruxiy» bu harbiy tuzilma “eski qo'shinga” qarshi tuzilgan “yangi qo'shin” deb nomlangan.

### **Asosiy qism**

XIX asrga oid tarixiy manbalar ma'lumotlariga ko'ra Qo'qon xonlik qo'shini tarkibi jihatdan: otliqlar sipohlar, artilleriya - to'pchilar, piyoda sarbozlarga bo'lingan. Bu yirik bo'linmalardan tashkari maxsus Gvardiya galabotirlar va merganlar bo'linmasi ham mavjud bo'lgan. Qo'shinding asosiy qismi, ya'ni, yadrosini, otliq askarlar tashkil etgan. Ma'lumotlarga ko'ra, otliq askarlarga hukumat tomonidan xar biri 80 tillagacha baholanadigan otlar berilgan, Qo'qon xoni otxonasida 20 000 askar uchun ot saqlangan. Qo'qon xonligida bo'lgan Filipp Nazarovning: «Otlik askarlar baquvvat otlarda, qimmatbaho to'n va qizil charmdan tikilgan shalvar kiyganlar. Boshlariga qizil salla o'raganlar. Boshqa qo'shin turlari esa, oq salla o'raydilar. Otliqlarning kiyim-boshlari va otda o'zini tutishi kishida salobatli taassurot qoldiradi» deb yozgan fikri ayrim tadqiqotchilarning Qo'qon otliq askarlari maxsus kiyimga ega bo'Imagan degan nuqtai nazarlari noto'g'riligini, ikkinchi tomonidan esa Qo'qon qo'shini turli harbiy bo'linmalari o'z kiyimiga ega bo'lganligi, otliq askarlar liboslari qisman bo'lsa-da, boshqa qo'shin turlarinikidan farq qilganligini ko'rsatadi<sup>1</sup>.

1Tursunov B.Ya. Qo'qon xonligida harbiy ish va qo'shin: holati, boshqaruvi, an'analari, 2006. 93-96-betlar.

Qo'shinding yirik tarkibiy qismlaridan biri piyoda askarlar bo'linmasi son jihatidan otliq askarlar bilan deyarli barobar bo'lgan. Harbiy harakatlarda faol ishtirok etgan bu qo'shin turi ham o'zining alohida kiyim-boshiga ega bo'lgan. Ularning libosi haqida XIX asr muallifi shunday yozadi: «Sarbozlarning kiyim-boshlari boshqa qo'shin turlari va oddiy fukarolarnikidan farklanib turgan. Sarbozlar kizil matodan tikilgan nimcha, qizil charmdan tikilgan shalvar, boshlariga esa yuqori qismiga qizil mato qo'shib tikilgan qalpoq kiyganlan». Merganlar bo'linmasi boshqa qo'shin turlariga nisbatan son

jihatdan kamchilikni tashkil etgan. Bu tabiiy hol bo'lib, ushbu bo'linma askarlari, qo'shining boshqa turlari orasidan, xuddi galabotirlar kabi saralab olingan. "Tarixiy Shoxruxiy" asari muallifining ko'rsatishicha, Qo'qon qo'shini tarkibida chopovul va iraul bo'linmalari mavjud bo'lib, ular harbiy yurish natijasida bosib olingan hududdagi o'ljalarni yigish bilan shugullanganlar. Ularning boshligi «qo'rchiboshi» deb atalgan. Qo'rchilarning qurol-yarog'lari saqlanadigan joy «qo'rxona» deyilgan. Xonlik yerlari, ya'ni qo'riqlarni muhofazasi bilan xon qo'rchilari shugullanganlar. Qo'rchilar Amir Temur davrida ham bo'lib ularning asosiy vazifasi ekin maydonlarini muhofaza etish bo'lgan. 1

Xonlik qo'shini tarkibida musiqachilar ham bo'lgan. Ular turli musiqa asboblari yordamida qo'shinni jangga chorlar, galabalarni musiqa yordamida e'lon qilar, askarlarning ruhiyatini ko'tarishga xizmat qilar edilar. Qo'qon xonligida, har bir 20-30 kishilik guruhga ikki yoki uch musiqachi biriktirilgan. Harbiy musiqachilarning musiqa asboblari do'mbira, nogora, karnay va surnaylardan iborat bo'lgan. Qo'qon xonligida harbiy safarbarlikka barcha yaroqli erkaklar jalb etilganlar. Qaysi hududdan qancha askar safarbar kilinishi hukumat tomonidan belgilab qo'yilgan. Ushbu qoida muntazam qo'shinga ham daxldor bo'lgan. Qo'kon xonligida muntazam qo'shin tarkibiga xizmatga olish merosiy bo'lib, xarbiy xizmat qilish otadan o'g'ilga o'tgan. Agar sarboz jang vaqtida halok bo'lsa qurol-yarog'i va o'rni uning o'g'liga, agar o'g'li bo'lmasa yaqin qarindoshlariga berilgan. Chunki sarbozlik tartib-qoidalari qat'iy intizomga asoslangan bo'lib, uni buzgan askarlar qattiq jazolanganlar. Sarbozlikka qabul qilingan bu shaxslarning ko'plari xonlik olib borgan harbiy harakatlar davomida, jumladan, ruslar bilan bo'lgan janglarda jasorat namunalarini ko'rsatganlar. Askarlar xizmat joylarini ruxsatsiz tark etishlari mumkin emasdi. Tinchlik vaqtida har kuni askarlarning 1/10 qismiga oilasi holidan xabar olishga ruxsat berilgan. Askarlik ro'yxatiga tushgan odam o'z xohishiga ko'ra bu ro'yxatdan chiqib ketish huquqiga ega bo'lmagan. Askarlikka safarbarlik qilish tartiblariga binoan oilaning yolgiz boquvchisi bo'lgan erkaklar va jismoniy kamchiliklariga ega bo'lgan shaxslar ro'yxatga kiritilmaganlar. Yordamchi bo'linmalar qoraqozon va qoracherik, qilquyruq zarurat tugilganda bunday bo'linmalar aholi soni, hududlarning iqtisodiy qudratiga karab to'plangan.2

1 Aminov B. Qabrtosh bitiklari qo'shimcha manba // Jamiyat va boshqaruv, 2001. № 1. 32-b , Choriev Z. Tarix atamalarining qisqacha lug'ati. T.: Sharq, 2003. 137-b.

2 Tursunov B.Ya. Qo'qon xonligida harbiy ish va qo'shin: holati, boshkaruvi, an'anala- ri, 2006. 93-101-betlar.

Askarlarning o'z vaqtida safarbar qilinishi, ular qurol-yarog'i, kiyim-kechagi va belgilangan joyda o'z vaqtida hozir bo'lishlariga viloyat hokimlari beklar mas'ul edilar. Bek o'z hududining ham ma'muriy, ham harbiy boshligi hisoblangan. Bek o'z viloyatida to'plangan qo'shinga o'rta va quyi darajali harbiy boshliqlarni tayinlash huquqiga ega bo'lishi bilan bir katorda, umumiyligida qo'mondon rahbarligida uni jangta ham o'zi olib kirgan. Bek qancha qo'shin to'plashi xon boshlik markaziy hukumat tomonidan belgilangan. Qo'shin o'z bekiga sodiq bo'lgan. Chunki askarlarning barcha ta'minoti bek tomonidan amalga oshirilgan. Askarlarning yaxshi kiyinishi va oziq-ovqati viloyat hokiminining boy va saxiyligiga bog'lik edi. Agar aksincha bo'lsa, askarlar ahvoli yomonlashgan. Bekning uch kishidan iborat xarbiy mirzasi bo'lib, ulardan biri qo'shin ta'minotiga ketadigan xarajatlarni xisob-kitob kilib, daftarga qayd etib borgan. Qozoq va Qirg'iz dashtlarida joylashgan har bir beklik o'z qo'shini va qal'asiga ega bo'lgan. XIX asr 50-60 yillariga kelib, Qo'qon xonligi qo'shinida afg'onlardan iborat chet ellik yollanma askarlar ham xizmat qila boshlaganlar. Jumladan, «Tarixi Shoxruxiy» asari muallifining ko'rsatishicha, 1864 yilda Qo'qon to'pchilari boshligi sifatida Jamandar afg'on xizmat qilgan. U harbiy sohada Evropa uslubidagi tartiblardan xabardor bo'lgan. «Tarixi Shoxruxiy» asarida yozilishicha Madalixon davrida Qo'qon xonligi bayrogi oq rangda bo'lgan. U ipakdan to'qilgan bo'lib, yuqorida pastga kokilalar osilib turar edi. Qo'qon xonligi qo'shinida har bir besh yuzlik bo'linma o'z bayrog'iga ega bo'lgan. Har bir yuzlik bo'linmaning o'z ramzi (gerbi) ham mavjud edi. Xonlik qo'shinining turli qismi va bo'linmalarida turli ko'rinish va xilma-xil ranglardagi bayroqlar bo'lganligi ayrim manbalarda qayd etilgan. Ruslar tomonidan Turkiston shahrida o'lja olingan bayroqlardan biri qizil rangli, Oqbul oqdan o'lja olingan bayrok esa yaltiroq tovlanuvchi jilvaga ega edi. 1842 yilda Madalixon Buxoro amiri Nasrulloha qarshi besh tug'li lashkar bilan jangga kirgan. Bu tug'larning rangi ko'k, oq, sariq, qizil ranglarda va bir bayroq qora bo'lgan.<sup>1</sup>

Xonlikda harbiy ta'lif beradigan va harbiylar tayyorlaydigan maxsus o'quv yurti bo'limgan. Biroq yangi askarlarga harb ilmini har tomonlama o'rgatishga harakat qilingan. Xususan, O'rta Osiyo xonliklarida qo'shinga yangi chaqirilgan yigitlarning bir qismiga moxir va tajribali harbiylar jang qilish san'atini o'rgatganlar va ularni «shogirdpeshalar» deb nomlaganlar. «Tarixi Shoxruxiy» asarida qayd etilishicha «Normuhammad qushbegi» ismli shaxs o'z yaqinlari va qarindosh-urug'larining farzandlaridan 500 kishidan iborat shogirdpeshalarni o'z tarbiyasiga olgan. Bu bilan xonliklarda faqat

shogirdlikka olingen yigitlarga harbiy tayyorgarlikdan o'tganlar, degan xulosaga bormaslik kera.<sup>2</sup>

1Tursunov B.Ya. Qo'qon xonligida harbiy ish va qo'shin: holati, boshqaruvi, an'analari, 2006. 105-6.

2 O'sha asar. 102-105-betlar.

Qo'qon xonligida askarlar yilda ikki marotaba harbiy ko'rikdan o'tqazilgan. Bu ko'riklarda askarlarga faqat kiyim-bosh tarkatibgina qolmasdan, ularning jangovar va taktik tayyorgarligi, qurol-yarog'lari ham ko'zdan kechirilgan. Xonlikning muntazam qo'shniniga safarbar qilingan yosh askar yigitlar quroldan foydalanish sirlarini o'zlashtirgunga qadar, tajribali askarlar rahbarligida tanlangan yo'halishlari bo'yicha harbiy tayyorgarlikdan o'tganlar.<sup>1</sup>

Qo'shinga yangi chaqirilgan askarlar bilan shug'ullangan tajribali askarlar, yuzboshi va o'nboshilar ularga turli an'anaviy usullarda ta'lim bergenlar. Jumladan, ular muayyan harbiy taktik tayyorgarlikni mukammal o'zlashtirish uchun ovdan keng foydalanganlar. Ov vaqtida askarlar qurshovga olish, ommaviy hujum qilish, tartibli chekinish kabi saboqlarni o'rganishgan. Merganlar bo'linmasi safiga o'tishni istagan askarlarga miltiqlardan mashq qilish imkoniyati yaratib berilgan va buning uchun xonlik xazinasidan mablag' ajratilgan. To'pchilar o'z navbatida to'plarda mashk qilganlar. Vaqt-vaqt bilan barcha qo'shin turlari birgalikda umumiylashkulotlarda ham ishtirok etganlar. Askarlar o'qotar quollar, to'plardan foydalanish, ular yordamida jang olib borish usullarini o'rganganlar. Shu bilan bir qatorda mudofaa tizimida muhim o'rinni tutgan qal'alarni qurshovga olish, hujum qilish kabi ko'plab mashqlarni ham o'tkazganlar. Harbiy ko'rik paytida maxsus tayyorgarlikni o'tagan askarlar harbiy boshliqlar bilan saf bo'lib o'tganlar. Saf boshida dastlab artilleriya, so'ngra har bir bo'linmaning 20-30 kishidan iborat guruhi, guruh oldida esa zabit va uning yonida 2-3 kishidan iborat harbiy musiqachilar joylashganlar. Qo'qon xonligida qo'shin tarkibiy bo'linishi markaziy Osiyoda keng tarkalgan an'analar asosida amalga oshirilgan.<sup>2</sup>

Xonliklarda qadimiyligi qo'shin bo'linishi saqlanib qolgan bo'lib, ko'p sonli qo'shin tumanga (10 000 kishidan iborat), tuman o'z navbatida hazorga (1000 kishidan iborat, Qo'qon xonligida tug'), xazor dastaga (1000-500 kishi), dasta yuzlikka (Qo'qon xonligida bayroq), yuzlik ellikka, ellik o'nlikka bo'lingan. Qo'qon qo'shini harbiy safarga chikkanda har bir bo'linma qoshida harbiy sohaga aloqador bo'limgan 5 kishidan iborat gurux hamrohlik qilgan. Ularning vazifalaridan biri yaralangan askarlarini jang maydonidan olib chiqib aravalarga joylashtirish va halok bo'lgan askarlarni

(dushmanmi yoki o'zlarining askarimi farqi bo'limgan, musulmon bo'lsa bo'ldi) dafn etishdan iborat bo'lgan.3

1Tursunov B.Ya. Qo'qon xonligida harbiy ish va qo'shin holati, boshqaruvi, an'analari, 2006, 106-6.

2O'sha asar. 106-107-betlar.

3O'sha asar. 108-b.

Markaziy Osiyo xonliklarida qo'shining xarbiy tuzilishi va xarbiy taktika, jang olib borish masalalarida Amir Temur qo'shinida mavjud bo'lgan an'analarning kuchli ta'siri borligini ko'rish mumkin. Harbiy harakatlar chogida barcha qo'shin jamlanib, askarlar safarbarlikka chaki rilgan hudud va millatlariga ko'ra tomon va kanotlarga bo'linganlar. Ka-notlar o'ng, chap va o'rta markazdan iborat bo'lgan. Bunday bo'linish jang larda turli harbiy uslublarni amalga oshirish imkonini bergen. Bunday bo'linish uslubi yukorida aytilganidek, askarlarga ov va uloq ko'pkari orqali o'rgatilgan. XIX asrda bu uslubdagi bo'linish ko'pkari musobaka- sida o'z aksini topgan. Unga ko'ra o'ng va so'l taraf bir-biri bilan muso bakalashib, markaz o'rta miri deb atalib, xakam vazifasini bajargan Chap kanot obro' va jangovar shon-shuhrat masalasida o'ng kanotga nisbatan yukorirok darajali bo'lgan. Qo'qon xonligida qo'shining markaz kismini O'zbek urug'i vakillari tashkil etgan. Chap va o'ng kanotga joylashish turli xonlar davrida turlicha kechgan. Jangovar harakatni odatda markaz bosh- lab bergen va jangning taqdiri ko'proq ularga bog'lik bo'lgan. Zarbdor kism zarbasidan so'ng o'ng va so'l kanot askarlari hujumga o'tib, dushmanii qurshovga olgan. Pistirmadagi lashkarlar esa dushmani qo'kkisdan hujum kilib, uning mag'lubiyatini tezlashtirgan. Qo'shindagi to'plar esa dushman istehkomlarini vayron qilishda ishlatilgan.1

1.Tursunov B.Ya. Qo'qon xonligida harbiy ish va qo'shin holati, boshqaruvi, an'analari, 2006. 108-110-betlar

Xulosa: Qo'shin tuzilishi, uning tarkibi, turi , yoshi, qo'shin saqlash uchun ketadigan mablag' va harbiy mahoratning o'rgatilish mактабига sinchiklab nazar solsak quyidagi xulosalar keladi :

-qo'qon xonlari, va yuqori davlat ayonlari va qisman yoki yarim mustaqil bol'gan bekliklarda ham holat bir xil edi. Yani bo'lishi muqarrar bulgan imqiroz. Muqarrar deyishimizga asos bor, albatta. Ko'pchilik o'yaganidek O'rta Osiyo xonliklarida fan va ilm qoloq bulmagan. Yani qoloqlik XVI asr oxiridan emas XIX asr o'rtalaridan boshlangan. Buning isboti o'laroq Buxoro, Samarqand, Xiva, Qo'qon Toshkentlar yaqin yaqingacha musulmon olamida mutaxasis chiqaruvchi ilm markazlari edi. Ular nafaqat diniy ilmda(o'zi ilmni ikkiga bo'lish ancha nisbiydir), dunyoviy fanlarda ham

renesans merosi saqlanar, hech bo'lmaganda o'qilar edi. E'tibor berish kerakki G'arb tamaddini ham aynat anashu asarni o'qishdan boshlangan. Muammo esa u ilmlarning amaliyotga tadbiq etilmaganida. Yani aniq, tabiiy va ijtimoiy fanlar yutuqlari jamiyat va taraqqiyotga tadbiq etilmadi. Va u faqat tor doira vakillarida qolib ketti. Bu doira doimo torayib borar, va urushlar va sovet davrida juda kamayib ketti.

-nega davlat rahbarlari zamonaviy qo'shin tuzishga "e'tibor" bermagan, degan savol tug'iladi. Nahotki ularning orasidan bironta ham bu jabhalarni tushunadigan hukumdar bulmasa. Albatta, bunday shaxslar bulgan, bu muammoli savolga ancha ko'proq tomonlarni hisobga olib javob beramiz. Birinchida: sharoit, mintaqalarda davlatlarida, xususan Qo'qonning ham atrofida u ergashadigan kuchli davlat yuq edi. Ikinchidan, qo'shin mustahkamlash uchun g'arb bilan aloqa qilish uchun masofa ancha uzoq va xatarli edi. Harakatlar bulgan ammo natija juda kichik. Yordam taklifini cho'zgan inglizlar esa albatta ancha xafli edi.

-Q'qon xonligi o'z qo'shnilarini bilan mos rivojlandi, yana uning qo'shini o'zi va atrofidagi davlatlar uchun kifoya qilar edi. Bu jihatiga alohida e'tibor berish kerak. Sababi shusiz ham katta xarajat talab etadigan qo'shin bundan ortig'ini ko'tara olomasdi.

So'ng xulosa o'rnilida shuni aytamizki, xonlik qo'shini tuzilmasi yaxshi bo'lган. Muammo tuzilmada emas shaxslarda va tafakkurda edi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOT:**

1. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI, O'ZFA TARIX INSTITUTI, O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVASIYALAR VAZIRLIGI, O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI HUZURIDAGI DAVLAT BOSHQARUVI AKADEMIYASI, O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MUDOFAA VAZIRLIGI QUROLLI KUCHLAR AKADEMIYASI, TOSHKENT AMALIY FANLAR UNIVERSITETI O'ZBEKISTON TARIXI (O'ZBEKISTON HARBIY SAN'ATI TARIXI) VIII JILD (O'ZBEKISTON TARIXI VA MANBALARI) TOSHKENT «MA'NAVIYAT» 2023

2. Tursunov B.Ya. Qo'qon xonligida harbiy ish va qo'shin holati, boshqaruvi, an'analari

3. Aminov B. Qabrtosh bitiklari qo'shimcha manba // Jamiyat va boshqaruv, 2001. № 1. 32-b , Choriev Z. Tarix atamalarining qisqacha lug'ati. T.: Sharq, 2003.

4.